

"Official Match Ball Carrier (OMBC) reklama aksiyasi to'g'risida"

NIZOM

1. UMUMIY QOIDALAR

1. Aksiya nomi: "Official Match Ball Carrier (OMBC)", keyingi o'rinlarda — "Aksiya".
2. Aksiya rag'batlantiruvchi lotereya hisoblanmaydi, unda ishtirok etish Ishtirokchilar tomonidan haq to'lash bilan bog'liq emas hamda tavakkalchilik va qimorga asoslanmagan. Ushbu Aksiya O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 983, 984-moddalarida belgilangan normalar tatbiq etilmaydi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 15-noyabrda 396-son qarori bilan tasdiqlangan Lotereya o'yinlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomda nazarda tutilgan tartib tatbiq etilmaydi.
3. Aksiyaning o'tkazish tartibi Aksiya ishtirokchilarining to'lovlari bilan bog'liq emas, Aksiyaning sovrin jamg'armasi esa faqat "ROODELL" MCHJ (keyingi o'rinlarda - "Tashkilotchi") mablag'lari hisobidan shakllantiriladi.
4. Aksiya ishtirokchisi — muomalaga layoqatli, 10 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan (2011-yil iyunidan 2016-yil iyuligacha bo'lgan davrda tug'ilgan), O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan, ushbu Tartibda ko'rsatilgan zarur harakatlarni amalga oshirgan jismoniy shaxs (keyingi o'rinlarda — "Ishtirokchi").
5. Aksiyada ishtirok etish majburiy emas va ixtiyoriy xarakterga ega.
6. Aksiya tashkilotchisi: "ROODELL" MCHJ. Tashkilotchining manzili: Toshkent shahri, Yangi Sergeli ko'chasi, 7 uy, STIR: 207151159
7. Aksiya o'tkaziladigan hudud: O'zbekiston Respublikasi
8. Aksiya o'tkaziladigan davr: 26.01.2026-yildan 28.02.2026-yilgacha.
9. Sovrinlar o'ynaladigan sana: 28.02.2026y.
10. G'oliblarni tantanali e'lon qilish sanasi: 02.03.2026
11. Tashkilotchi Aksiya shartlariga o'zgartirishlar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi, bunday o'zgartirishlarni ushbu tartib shartlarida ko'rsatilgan usulda albatta e'lon qiladi.

2. AKSIYA SOVRIN JAMG'ARMASI

12. Aksiyalarning sovrin jamg'armasi: bitta nafar g'olib va unga hamrohlik qiluvchi bir nafar katta yoshli shaxs uchun Futbol bo'yicha FIFA 2026™ jahon chempionatiga 2 dona yo'llanma va 23.06.2026-yil kuni Xyuston shahrida (AQSH) o'tkaziladigan O'zbekiston — Portugaliya o'yini davomida to'pni maydonga olib chiqish imkoniyati.
Yo'llanma bo'yicha safarga quyidagilar kiradi:
 - xalqaro va ichki aviaparvozlar;
 - mehmonxonalarga joylashish;
 - aeroport — mehmonxona — aeroport transferi
 - Futbol bo'yicha FIFA 2026™ jahon chempionatlariga chiptalar.
 - ishtirokchilar ovqatlanish va shaxsiy xarajatlarini o'zlari mustaqil to'laydi.
 - Viza olish xarajatlari ishtirokchi tomonidan mustaqil ravishda to'lanadi.
13. Tashkilotchining sovrinlarni topshirish bo'yicha javobgarligi faqat yuqorida ko'rsatilgan sovrinlar soni bilan cheklanadi.
14. Tashkilotchi Sovrinlar ro'yxatini o'zgartirish/kengaytirish huquqiga ega.

3. AKSIYANI O'TKAZISH SHARTLARI VA TARTIBI

15. Aksiyada ishtirok etish uchun Ishtirokchi quyidagilarni bajarishi zarur:
 - "Kia bilan birga Futbol bo'yicha FIFA 2026™ jahon chempionatiga" mavzusida 15-30 soniyalik videorolik yaratib, unda o'z iste'dodlarini (har qanday turdagi) namoyish etish;

- bolaning vasiysining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifasiga video joylashtirish va Aksiya Tashkilotchisining Instagramdagi @kia__uzbekistan rasmiy sahifasini #FIFA2026KiaOlg'a heshtegi bilan belgilash;
- Aksiya Tashkilotchisining www.kia.uz saytidagi shaklini to'ldirish (bola Vasiysining aloqa ma'lumotlarini kiritish va Instagram'dagi video-post/ reels'ga havolani joylashtirish);

16. Aksiya ishtirokchilari tomonidan barcha shartlarning bajarilishini nazorat qilish "ROODELL" MCHJ direktorining buyrug'iga muvofiq xodimlar orasidan tuziladigan ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

17. Aksiya bo'yicha sovrinlar o'yini o'tkaziladigan vaqt va joy haqidagi ma'lumotlar ushbu Tartibga muvofiq e'lon qilinadi.

18. Har bir Ishtirokchi mustaqil ravishda, o'zi uchun qulay usulda Aksiya shartlari, Aksiya Ishtirokchilari ro'yxati, sovrinlar yutuqli o'yini o'tkazish joyi va vaqti haqidagi ma'lumotlar bilan tanishadi.

4. AKSIYA G'OLIBLARINI ANIQLASH TARTIBI

19. Sovrinlar o'yini faqat aksiya muddati davomida ushbu Nizomda ko'rsatilgan shartlarni bajargan Ishtirokchilar o'rtasida o'tkaziladi.

20. Aksiyada ishtirok etish holati barcha ishtirokchilarning ushbu shartlarga roziligini, shuningdek, ularning ismlari, familiyalari, fotosuratlarini Tashkilotchi tomonidan reklama maqsadlarida, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida e'lon qilishda haq to'loviz foydalanilishi mumkinligini anglatadi.

5. SOVRINLARNI OLISH TARTIBI VA MUDDATLARI

21. G'oliblar yutuq to'g'risida o'yin o'tkazilayotgan vaqtda shaxsan xabardor qilinadi.

22. G'oliblarni taqdirlash taqdirlash marosimida o'tkaziladi, uni o'tkazish joyi va vaqti to'g'risida Aksiya tashkilotchisi Aksiya yakunlangan kundan boshlab 7 ish kunidan kechiktirmay e'lon qiladi.

23. G'olib bo'lgan voyaga yetmagan shaxs nomidan sovrinni olishda uning qonuniy vakili (otona, farzandlikka oluvchi yoki vasiy) pasport yoki vakolatli davlat organi tomonidan berilgan shaxsini tasdiqlovchi boshqa rasmiy hujjatni, shuningdek, uning voyaga yetmagan shaxsning qonuniy vakili sifatidagi vakolatlarini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi shart.

24. Sovrinni olishda g'olibning qonuniy vakili o'z qo'li bilan sovrinni olganligini tasdiqlovchi hujjatga o'z familiyasi, ismi, otasining ismini to'liq ko'rsatgan holda qayd etadi, shuningdek shaxsiy imzo qo'yadi va ko'rsatib o'tilgan hujjatning boshqa zarur bandlarini to'ldiradi. Qonuniy vakil sovrinni olgan paytdan boshlab sovrin tasodifan nobud bo'lishi yoki buzilishi xatari qonuniy vakili bo'lgan g'olibga o'tadi.

6. YAKUNIY QOIDALAR

25. Sovrinlar qiymatining pul ekvivalenti to'lovi amalga oshirilmaydi.

26. Sovrinni olish bilan bog'liq barcha aniq xarajatlar Aksiya G'olibining qonuniy vakili tomonidan qoplanadi.

27. Aksiyada ishtirok etish Aksiya Ishtirokchilari va ularning qonuniy vakillarining ushbu Tartib bilan tanishishi va to'liq roziligini anglatadi.

28. Aksiya g'olibi deb e'tirof etilgan Ishtirokchilar avtomatik ravishda qo'shimcha roziliksiz Tashkilotchiga va/yoki uning vakolatli vakiliga uning ismi, familiyasi, otasining ismi, fotosuratini e'lon

qilish huquqini, shuningdek, reklama maqsadlarida, shu jumladan radio va televideniye uchun, xuddi boshqa axborot tarqatish vositalari kabi, Aksiyada ishtirok etish to'g'risida reklama intervyusini olish huquqini, har qanday reklama materiallarini tayyorlash uchun ulardan foydalanish muddati, tarqatish hududi cheklanmagan holda va qo'shimcha haq to'lamasdan foto va videotasvirga olish huquqini beradilar.

29. Tashkilotchi Aksiya Ishtirokchilari va (yoki) ularning qonuniy vakillari tomonidan taqdim etilgan, ushbu Tartibda nazarda tutilgan va Aksiya Sovrinini olish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning noto'g'riligi va (yoki) o'z vaqtida taqdim etilmaganligi uchun javobgar emas.

30. Aksiya g'olibi bo'lgan Aksiya Ishtirokchilari va (yoki) ularning qonuniy vakillarining Aksiya Tartibi bilan o'z vaqtida tanishmaganligi Tashkilotchiga tegishli Sovrinni olish uchun zarur hujjatlarni taqdim etish talablari va muddatlarini buzish uchun uzrli sabab hisoblanmaydi.

31. Tashkilotchi ushbu Tartib qoidalarini buzgan, shu jumladan Aksiya Sovrinlarini berish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish muddatlarini buzgan G'oliblarga, shuningdek bunday ma'lumotlarni taqdim etmagan G'oliblarga Aksiya Sovrinlarini berishni rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

32. Aksiyani o'tkazish bilan bog'liq barcha nizolar Tashkilotchi va Ishtirokchi o'rtasidagi muzokaralar orqali hal etiladi. Tinch yo'l bilan murosaga kelish mumkin bo'lmagan taqdirda, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq sudda ko'rib chiqiladi.

33. Ushbu Tartibda nazarda tutilmagan barcha holatlarda Aksiya Tashkilotchisi va Ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga amal qiladilar.

34. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablariga biron-bir tarzda zid bo'lgan taqdirda qonun hujjatlarining ushbu Nizomga nisbatan ustuvor bo'lgan normalari qo'llaniladi.

35. Nizom buyruq bilan tasdiqlanadi va amalga tatbiq etiladi.